

**BADIIY MATNLAR ASOSIDA O‘QISH KOMPETENSIYALARINI  
TAKOMILLASHTIRISH: INTEGRATIV LINGVODIDAKTIK YONDASHUV****X.B.Tursunov,***Is'hoqxon Ibrat nomidagi**Namangan davlat chet tillari instituti**dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada badiiy matnlar asosida o‘qish kompetensiyalarini takomillashtirishning lingvodidaktik asoslari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy chet til o‘qitish metodikasida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi hamda tilni kontekstda o‘rgatish zarurati bilan belgilanadi. Maqolada badiiy matnlarning lingvistik, kognitiv, pragmatik va madaniy komponentlari integratsiyada o‘rganilib, ularning o‘quv materialini sifatidagi didaktik imkoniyatlari asoslab beriladi. Shuningdek, o‘qish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar, xususan, global, selektiv, tahliliy va interpretativ o‘qish bosqichlari ilmiy jihatdan izohlanadi.

**Kalit so‘zlar:** badiiy matn, o‘qish kompetensiyalari, lingvodidaktika, kommunikativ yondashuv, madaniyatlararo kompetensiya, interpretatsiya, metakognitsiya.

**Аннотация.** В данной статье на основе комплексного подхода анализируются лингводидактические основы совершенствования компетенций чтения на материале художественных текстов. Актуальность исследования определяется приоритетом компетентностного подхода в современной методике преподавания иностранных языков, а также необходимостью обучения языку в контексте. В статье художественные тексты рассматриваются в интеграции их лингвистических, когнитивных, прагматических и культурных компонентов, обосновываются их дидактические возможности как учебного материала. Кроме того, научно интерпретируются стратегии развития компетенций чтения, в частности этапы глобального, селективного, аналитического и интерпретативного чтения.

**Ключевые слова:** художественный текст, компетенции чтения, лингводидактика, коммуникативный подход, межкультурная компетенция, интерпретация, метакогниция.

**Abstract.** This article analyzes the linguodidactic foundations of enhancing reading competencies through literary texts based on an integrative approach. The relevance of the study is determined by the priority of the competency-based approach in modern foreign language teaching methodology, as well as the need to teach language in context. The paper examines literary texts through the integration of their linguistic, cognitive, pragmatic, and cultural components, substantiating their didactic potential as instructional material. It also provides a scientific interpretation of strategies aimed at developing reading competencies, particularly the stages of global, selective, analytical, and interpretative reading.

**Keywords:** literary text, reading competencies, linguodidactics, communicative approach, intercultural competence, interpretation, metacognition.

**Kirish.** Zamonaviy ta’lim paradigmasida til o‘qitish jarayoni kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqilmoqda. O‘qish kompetensiyalarini takomillashtirish bu jarayonning markaziy komponentlaridan biri bo‘lib, u talabning nafaqat matnni tushunish, balki uni tahlil qilish, baholash va interpretatsiya qilish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Chet tilni o‘rganish jarayonida o‘rganilayotgan til madaniyati bilan tanishish zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayonda “madaniyat” tushunchasi faqatgina xalqning moddiy va ma’naviy merosi majmuini emas,

balki insonning ijtimoiy xulq-atvori va muloqotdagi o'zini tutish me'yorlarini ham o'z ichiga oladi. Mazkur me'yorlar tizimi shaxslararo muloqotning ijtimoiy-psixologik normalarini, atrof-muhitni idrok etish va talqin etish usullarini belgilab beradi. Shu sababli, chet tilni o'qitish jarayoni madaniy kontekstdan ajralgan holda amalga oshirilmasligi lozim.

Til - bu madaniyatni ifodalovchi va uzatuvchi asosiy vosita bo'lgani sababli, uni o'rganish nafaqat lingvistik, balki sotsiomadaniy kompetensiyani takomillashtirish jarayonidir. Shu nuqtai nazardan, chet tilni o'qitishda madaniyat madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi markaziy omil sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, talaba chet tilni o'rganar ekan, u shu tilda so'zlashuvchi xalqning dunyoni idrok etish uslubi, axloqiy qadriyatlari va muloqot madaniyatini ham o'zlashtiradi. Bu esa zamonaviy ta'lim paradigmasida til va madaniyatning o'zaro integratsiyasini ta'minlaydi. Til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni alohida o'rgatish samaradorlikni kamaytiradi.

Tilni o'rganishda madaniy va xulqiy me'yorlarni anglash, kommunikativ kompetensiyani mustahkamlaydi. Dars jarayonida madaniy kontekstga asoslangan materiallardan foydalanish (matnlar, videolar, dialoglar) til egasiga xos nutq va xulq madaniyatini tushunishga yordam beradi.

Bu yondashuv tilni bilish emas, balki til orqali muloqot qila olish malakasini rivojlantiradi. Chet tilni o'rganish jarayoni faqat leksik-grammatik bilimlarni egallashni emas, balki shu tilga xos madaniy tushunchalarni chuqur anglashni ham nazarda tutadi. Bunday tushunchalar tarkibiga xalqning madaniy an'analari, kundalik hayot tarzi, tarixiy va madaniy voqealari, mentaliteti, psixologik va emotsional xususiyatlari ham kiradi. Shu sababli, chet tilni o'qitishda badiiy matnlar bilan ishlash muhim didaktik komponent hisoblanadi.

Boshqa xalqlarning badiiy adabiyoti bilan tanishish orqali talabalar tilning asosida yotuvchi madaniy tushunchalarni o'zlashtiradilar, bu esa nafaqat matnni to'g'ri talqin qilishga, balki ushbu til egalari bilan samarali muloqot olib borishga ham yordam beradi. Bu muloqot og'zaki va yozma shaklda bo'lishi mumkin. O'quv jarayoniga hatto kichik hajmdagi nasriy yoki she'riy parchalarni kiritishning o'zi ham talabalarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi.

So'nggi o'n yilliklarda chet tillarni, xususan, fransuz tilini o'qitishda badiiy matndan foydalanish masalasi dolzarb ilmiy-metodik yo'nalishlardan biriga aylandi. An'anaviy grammatika va tarjima metodlarida badiiy matn asosiy o'quv materiali sifatida ko'rilgan bo'lsa, kommunikativ va interaktiv yondashuvlar rivojlanishi bilan u yana autentik o'quv vositasi sifatida qayta e'tirof etildi. Badiiy matn o'zida lingvistik, madaniy va estetik qatlamlarni mujassam etganligi sababli, u talaba uchun nafaqat grammatika va leksikani o'zlashtirish vositasi, balki madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantiruvchi kuchli ta'limiy resursdir. Didaktik nuqtai nazardan, bunday matnlar:

- Grammatik ko'nikmalarni tabiiy kontekstda mustahkamlaydi;
- Leksik boylikni kengaytiradi;
- Talabani fonetik va talaffuz malakalarini oshiradi;
- Madaniyatni tushunish va hurmat qilish ko'nikmasini rivojlantiradi;
- Talabani mustaqil tahlil va ijodiy fikrlashga yo'naltiradi.

Fransiyalik tilshunos olim, til o'qitish metodikasi mutaxassisi Jean-Pierre Cuq (2003) ta'kidlaganidek, badiiy matn kommunikativ yondashuv doirasida "autentik hujjat" sifatida til o'rganishda yangi kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirish imkonini beradi. Til va madaniyatni uyg'un o'rgatish – badiiy matn tilda yashiringan madaniy qatlamlarni ochib beradi. Interaktivlikni kuchaytirish – matn asosida bahs, savol-javob, tahliliy mashg'ulotlar olib boriladi. Kontekstual grammatika – til qoidalari sun'iy misollarsiz, tabiiy nutq muhitida o'zlashtiriladi. Motivatsiyani oshirish – badiiy matnlar talabada estetik zavq uyg'otadi va o'qishga rag'batni kuchaytiradi.[1]

Badiiy matndan foydalanish fransuz tilini chet til sifatida o'qitishda zamonaviy metodik yondashuvlarning muhim komponenti bo'lib bormoqda. U tilni nafaqat kommunikativ darajada, balki madaniyatlararo darajada egallash imkonini beradi. Shu bois badiiy matnlarni didaktik vosita sifatida dars jarayoniga kiritish - FLE ta'limining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Chet tillarni o'qitish didaktikasida metodistlar va tilshunos-tarixchilar diqqat markazida asosan yozuv (orfografiya), grammatika hamda sintaksis tizimini tashkil etuvchi qoidalarni o'zlashtirish masalasi turgan. Biroq tajriba shuni ko'rsatdiki, bu yondashuv yetarli samarani bermagan. Chunki til o'rganish jarayoni faqat grammatik qoidalarni egallash bilan chegaralanmasligi, balki undan kengroq maqsadlarni ko'zlashi zarur. Ya'ni, talabani imkon qadar ko'proq haqiqiy kommunikativ vaziyatlarga tayyorlash, turli nutq turlari va diskurs shakllarini o'zlashtirish, shu orqali madaniyatlararo moslashuv (akkulturatsiya) jarayonini amalga oshirish va madaniy saviyasi yuqori bo'lgan, matnni chuqur tahlil qila oladigan talabani takomillashtirish ko'zda tutilgan.

Shu maqsadda didaktiklar yangi metodik yo'nalishni tanladilar - bu yo'l badiiy matndan foydalanish yo'nalishidir. Badiiy matn til o'rganishda nafaqat grammatik va leksik ko'nikmalarni shakllantiradi, balki talabani tilning madaniy, ijtimoiy va estetik qatlamlariga olib kiradi. Bu esa talaba shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi, til va madaniyatni uyg'un o'rgatuvchi samarali vosita sifatida e'tirof etiladi.

Badiiy matn - bu tirik tushuncha bo'lib, u hayotiy haqiqatdan oziqlanadi va keyinchalik o'zining badiiy fazosiga qaytadi. U fransuz mualliflari (masalan, Balzak, Kamyu, Molyer) yoki fransuz tilida ijod qilgan boshqa yozuvchilar (masalan, Dib, Feraun, Kateb Yasin) qalamiga mansub bo'lishi mumkin. Badiiy matn roman, ertak, she'r yoki teatr asarining bir parchasi ko'rinishida bo'lishi ehtimolidir.

**Adabiyotlar tahlili.** Fransuz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Honoré de Balzac ning "Le Père Goriot" (1835)[2] asaridan olingan quyidagi parcha badiiy tarjima va lingvodidaktik tahlil uchun muhim material hisoblanadi:

"En voyant Rastignac, Goriot se leva avec cette joie que ressent un père à la vue de son enfant. Il lui tendit les bras et dit d'une voix émue: Mon ami, je savais bien que vous viendriez."

Mazkur parcha quyidagicha tarjima qilindi:

Rastinyakni ko'rgan zahoti, Gorio otalik mehrini farzandi qarshisida his etgan insondek quvonch bilan o'rnidan turdi. U qo'llarini unga tomon cho'zib, hayajon aralash samimiy ohangda shunday dedi: Do'stim, sizning kelishingizga ishongan edim.

Tarjima jarayonida "avec cette joie que ressent un père à la vue de son enfant" – "Otalik mehrini farzandi qarshisida his etgan insondek quvonch bilan" konstruktsiyasi bevosita so'zma-so'z emas, balki **madaniy-semantik ekvivalentlik** tamoyili asosida qayta ifodalandi. Ya'ni, fransuz tilidagi mazkur ibora o'zbek tilida tabiiy, obrazli va konnotativ jihatdan mos keluvchi shaklda berildi. Bunday yondashuv tarjimaning adekvatligini ta'minlab, matnning emotsional-ekspressiv yuklamasini saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarjimada personajlararo munosabatning psixologik nozikliklari va pragmatik ohangi izchil ifodalandi.

Mazkur badiiy parcha chet tilni o'qitish jarayonida quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishda samarali didaktik material sifatida xizmat qilishi mumkin:

1. Dialogik nutqni o'rgatish : Matndagi dialogik tuzilma talabalarni real kommunikativ vaziyatlarga yaqin nutq namunasi bilan tanishtiradi. Bu esa ularning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Pragmatik semantika : Parchada nutqning yashirin ma'nolari, muallif intension va personajlarning emotsional holati ifodalangan. Talabalar ushbu elementlarni tahlil qilish orqali nutqning pragmatik jihatlarini anglashga o'rganadilar.

3. Emotsional-ekspressiv komponent : Matnda ifodalangan otalik mehr-muhabbati va samimiylig talabalarga tilning emotsional imkoniyatlarini ko'rsatadi. Bu esa ularning nutqiy ifoda vositalarini boyitadi.

4. Lingvomadaniy kompetensiya: Mazkur parcha orqali talabalar fransuz madaniyatiga xos munosabat shakllari va kommunikativ xulq me'yorlarini o'zlashtiradilar.

Ushbu badiiy parcha tarjimasi shuni ko'rsatadiki, chet tilni o'qitishda badiiy matnlar nafaqat lingvistik birliklarni o'rgatish, balki nutqning pragmatik, emotsional va madaniy komponentlarini kompleks tarzda shakllantirish imkonini beruvchi samarali lingvodidaktik vosita hisoblanadi.

Fransuz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Albert Camus ning "L'Étranger" – Begona (1942)[3] asaridan olingan quyidagi parcha ekzistensial adabiyotning yorqin namunasi sifatida tarjima va metodik tahlil uchun muhim material hisoblanadi:

Aujourd'hui, maman est morte. Ou peut-être hier, je ne sais pas. J'ai reçu un télégramme de l'asile: «Mère décédée. Enterrement demain. Sentiments distingués.» Cela ne veut rien dire. C'était peut-être hier. L'asile de vieillards est à Marengo, à quatre-vingts kilomètres d'Alger. Je prendrai l'autobus à deux heures et j'arriverai dans l'après-midi. Ainsi, je pourrai veiller et je rentrerai demain soir. J'ai demandé deux jours de congé à mon patron et il ne pouvait pas me les refuser avec une excuse pareille. Mais il n'avait pas l'air content. Je lui ai même dit : « Ce n'est pas de ma faute. » Il n'a pas répondu. J'ai pensé alors que je n'aurais pas dû lui dire cela. En somme, je n'avais pas à m'excuser. C'était plutôt à lui de me présenter ses condoléances.

Bugun onam vafot etdi. Balki kecha - aniq bilmayman. Men qariyalar uyidan quyidagi mazmundagi telegrammani oldim: “Ona vafot etdi. Dafn marosimi ertaga. Hurmat bilan.” Bu deyarli hech narsani anglatmaydi. Ehtimol, voqea kecha sodir bo‘lgandir. Qariyalar uyi Marengoda, Jazoir shahridan sakson kilometr uzoqlikda joylashgan. Men soat ikkida avtobusga chiqaman va u yerga tushdan keyin yetib boraman. Shunday qilib, kechasi marhum yonida qolib, ertasi kuni kechqurun qaytaman. Ish beruvchimdan ikki kunlik ta’til so‘radim, bunday sabab bilan u rad eta olmasdi. Biroq uning kayfiyati unchalik yaxshi emas edi. Hatto men unga: “Bu mening aybim emas”, - dedim. U esa javob bermadi. Shunda men bunday deyishim kerak emasligini o‘yladim. Aslida, uzr so‘rashga majbur emasdim. Aksincha, u menga hamdardlik bildirishi kerak edi.

Mazkur parcha tarjimasida Albert Camus ga xos minimalistik va neytral-ekspressiv uslub saqlab qolindi.

Fransuz tilidagi qisqa, sodda va hissiy jihatdan “bo‘sh” gaplar o‘zbek tilida ham lakonik va betaraf ohangda berildi.

“Cela ne veut rien dire” iborasi kontekstual-ekzistensial ma’noni hisobga olgan holda “Bu deyarli hech narsani anglatmaydi” tarzida interpretativ tarjima qilindi.

“Sentiments distingués” iborasi pragmatik ekvivalentlik asosida “Hurmat bilan” shaklida berildi. Bu yondashuv tarjimaning nafaqat semantik, balki uslubiy va falsafiy adekvatligini ta’minlaydi.

Mazkur matn chet til o‘qitishda quyidagi yo‘nalishlarda samarali o‘quv materiali sifatida qo‘llanilishi mumkin:

1. Grammatik kompetensiya : passé composé zamonining qo‘llanilishi (j’ai reçu, j’ai demandé), qisqa gaplar orqali sintaktik minimalizmni o‘rganish.
2. Pragmatik kompetensiya : rasmiy nutq formulalari (telegramma uslubi), ijtimoiy munosabatlarda nutq etiketi.
3. Diskursiv kompetensiya: matnning ichki izchilligi, fragmentar nutq orqali ma’no yaratish.
4. Lingvomadaniy kompetensiya: fransuz jamiyatidagi rasmiy yozishma modeli, ijtimoiy munosabatlarda hissiy neytrallik.

5. Kognitiv va tanqidiy tahlil: “begonalik” fenomenini anglash, matndagi emotsional bo‘shliqni interpretatsiya qilish.

Mazkur parcha chet til o‘qitish jarayonida badiiy matnlarning lingvistik, pragmatik va madaniy komponentlarini integratsiyalashgan holda o‘rgatish imkonini beruvchi samarali didaktik vosita sifatida xizmat qiladi.

### 3. Molière - Le Bourgeois gentilhomme (1670)[4]

“Tout ce que je sais, c’est que je veux apprendre à lire et à écrire, car je suis fort aise d’être un homme savant.”

“Men bilgan yagona narsa shuki, men o‘qishni va yozishni o‘rganishni istayman, chunki bilimli inson bo‘lish menga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi.”

“**fort aise**” - to‘g‘ridan-to‘g‘ri “**juda mamnunman**” ma‘nosida, lekin konnotativ qiymatni saqlash uchun “katta mamnuniyat bag‘ishlaydi” shaklida ifodalandi. Gapda motivatsiya, o‘quv jarayonining shaxsiy maqsadi va ta‘limga ijobiy munosabat semantik jihatdan saqlab qolindi.

Mazkur parcha chet til o‘qitish jarayonida quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishda samarali o‘quv material sifatida xizmat qiladi:

1. Motivatsion-kommunikativ komponent: Jumla talabaning o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini ifodalaydi. Bu esa ta‘lim jarayonida ichki ehtiyoj va maqsadning shakllanishini muhokama qilish uchun asos bo‘ladi.

2. Savodxonlik kompetensiyasi: “O‘qish” va “yozish” faoliyatlari til o‘rganishning asosiy ko‘nikmalari sifatida taqdim etilib, ularning bilimlilikka olib boruvchi bosqichli rivoji (savodxonlik → bilim → shaxsiy rivoj) ko‘rsatiladi.

3. Pragmatik va semantik tahlil: Jumla strukturasi maqsad (apprendre), sabab (car) va natija (être un homme savant) o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanish talabalarga nutqning funksional tuzilishini o‘rganish imkonini beradi.

4. Lingvomadaniy kompetensiya: Mazkur parcha orqali fransuz klassik dramaturgiyasiga xos ijtimoiy kontekst - bilimli inson maqomi va ijtimoiy mavqe masalasi yoritiladi.

Badiiy matnlar til o‘qitish jarayonida faqat axborot uzatuvchi vosita emas, balki lingvistik, madaniy, ijtimoiy va kognitiv komponentlarni integratsiyalashgan holda rivojlantiruvchi ko‘p funksiyali lingvodidaktik resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Bizning tadqiqotimiz chet tillarni, xususan, fransuz tilini o‘qitish jarayoniga oid ilmiy-pedagogik mulohazalar doirasiga kiradi. Bu yondashuvda badiiy matndan foydalanish orqali til kompetensiyalarini va madaniyatlararo ko‘nikmalarni rivojlantirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Aynan ushbu kompetensiyalar zamonaviy ta‘lim tizimida muhim o‘rin tutuvchi strategik masalalardan biridir.

Badiiy matn fransuz tilini o‘qitish va o‘rganish jarayonini qanday yaxshilashi mumkin?

Ushbu ilmiy mulohaza ustida ishlash davomida quyidagi farazlar shakllandi:

1. Badiiy matn talaba-tinglovchiga o'qigan matni haqida erkin gapirish imkonini beradi va tilni muloqot vositasi sifatida shakllantiradi.

2. Badiiy matnning autentik xususiyati uni amalga yo'naltirilgan yondashuv (approche actionnelle) doirasida nutqni faollashtiruvchi hujjat sifatida qo'llash imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Avvalo, tadqiqot muammosini yoritishdan oldin "adabiyot" tushunchasining o'ziga e'tibor qaratish lozim. Etymologik jihatdan "littérature" atamasi "yozuv", "yozma ijod" degan ma'noni anglatadi. Adabiyot mohiyatini anglash - bu, eng avvalo, matnni yaratish jarayonini va matn hamda uning yozilish uslubini tushunishni anglatadi. Adabiyot tilni shunchaki o'rganish vositasi emas, balki mazmunli va madaniy kontekstda uni idrok etish imkonini beruvchi manbadir.

Chet tilni o'qitishda badiiy matn tilning estetik, ijtimoiy va madaniy qatlamlarini ochib beradi. Shuning uchun ham adabiyotga metodik yondashuv faqat til birliklarini emas, balki fikrlash madaniyatini takomillashtirishni ham o'z ichiga oladi. Bunga qo'shimcha ravishda, adabiyot hodisasini tavsiflovchi "bilimdonlik (érudition)", "bilim" va "umumiy madaniyat" kabi tushunchalarni ham esga olish lozim. Robert Eskarpit (fr. Robert Escarpit) - fransuz yozuvchisi, adabiyotshunos, jurnalist va adabiyot sotsiologiyasi sohasining taniqli olimi ta'kidlaganidek, adabiyot hodisasi avvalo subyektiv hodisa bo'lib, keyingina bilim hodisasiga aylanadi. Adabiyot - bu nafaqat til hodisasi, balki shaxsning madaniy, bilim va estetik tajribasini shakllantiruvchi vositadir. Til o'rganish jarayonida badiiy matn bilan ishlash talabada tilni his qilish, tushunish va ijodiy yondashuvni takomillashtirish imkonini beradi. Shu bois adabiyot chet tillarni o'qitishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning muhim elementi hisoblanadi.[5]

**Tahlillar va natijalar.** Shunday qilib, badiiy matn til mahsuli sifatida, ya'ni til tizimining ko'p qirralarini ochib beruvchi kuzatuv va tahlil maydoni sifatida qaraladi. Boshqacha aytganda, badiiy matn o'zida nutq, madaniyat, mafkura, san'at va boshqa ko'plab ma'lumotlarni mujassam etgan ko'p qatlamli hodisa sifatida tan olinmog'i lozim. U ko'p talqinli (plurielles) o'qishlar, izohlar, tanqidiy yondashuvlar uchun sermahsul maydon hisoblanadi. Til o'rganish nuqtayi nazaridan bunday matnlar til tizimining real ishlashini ko'rsatadi va o'rganuvchi uchun lingvistik va madaniy laboratoriya vazifasini bajaradi.

Masalan, "Le Français dans le monde" jurnalida fransuz tilshunosligi, didaktika va semiotikasi sohasida faol olim J. Peytard badiiy matnni "til laboratoriyasi" deb taqqoslaydi. Bu taqqoslash badiiy matnning chet tilni o'rgatishda nechog'lik kuchli vosita ekanini ko'rsatadi. "Badiiy matn - bu til laboratoriyasi bo'lib, unda til shunchalik faol ravishda qo'llaniladi va ustida ishlanadiki, aynan shu jarayonda u o'zining tuzilishi va ishlash mexanizmlarini eng aniq tarzda namoyon etadi. Adabiyot bu yerda qo'shimcha madaniy boylik emas, balki til o'qitishning poydevoriy asosi sifatida namoyon bo'ladi." [6]

J. Peytard ta'kidlaganidek, badiiy matn chet tilni o'rgatishda grammatik va leksik tizimni amaliy kontekstda ko'rsatish imkonini beradi. Bunday matnlar yordamida talabalar

tilning ichki tuzilishi, stilistik boyligi va madaniy konnotatsiyalarini tabiiy ravishda o'zlashtiradilar. Shu sababli adabiyot til o'qitish jarayonida qo'shimcha emas, balki asosiy o'quv vositasi sifatida ko'rilishi kerak.

“Bu yoki u asarni badiiy asar darajasiga ko'taradigan narsa bu - uning “badiiyligi”dir.” (Jackobson, 1960, C. Achour va S. Rezzoug tomonidan keltirilgan, 1990:87). Shuning uchun badiiy matnning o'ziga xosligi haqida gapirganda, eng avvalo, “badiiylilik” (fr. littérarité) tushunchasini tushunish zarur. Bu tushuncha tilning estetik ishlatilish shakllari va badiiylilikni ta'minlaydigan til vositalari majmuasini anglatadi. Ya'ni, badiiy matn oddiy ma'lumot yetkazishdan tashqari, tilda go'zallik, obrazlilik va stilistik chuqurlikni namoyon etadi.[7]

“Badiiylilik” tushunchasi chet tilni o'qitishda juda muhim, chunki u talabalarga tilning oddiy kommunikativ funksiyasidan tashqari estetik va madaniy qirralarini ham anglash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, ularning lingvistik kompetensiyasi bilan bir qatorda madaniy va stilistik kompetensiyasini ham rivojlantiradi. O'quv jarayonida badiiy matn o'rganish orqali talabalar metafora, simvol, ritm, intonatsion o'ziga xoslik kabi badiiy til vositalarini anglab, ularni amaliy nutq faoliyatida qo'llashni o'rganadilar.

Estetik sohada badiiy matn faqatgina “mukammal shakl”, ya'ni badiiy mehnat mahsuli sifatida ta'riflanadi. Shu jihatdan, badiiy asar maqsadi faqat amaliy yoki utilitar bo'lgan matnlardan - xususan, ilmiy-texnik matnlardan farq qiladi. Oddiy matnlar ma'lumot yetkazishni maqsad qilsa, badiiy matn go'zallik, obrazlilik va estetik ta'sir yaratishga qaratilgan bo'ladi.

Bu yondashuv badiiy matn nafaqat tilning kommunikativ vositasi, balki badiiy va madaniy qadriyat tashuvchisi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shuning uchun chet tilni o'qitishda badiiy matn oddiy til o'rganish vositasi emas, balki tilning estetik qirralarini anglashga, stilistik sezgirlikni takomillashtirishga, va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Badiiy matn orqali talaba tilning badiiy shaklini tushunadi va shu orqali madaniy konnotatsiyalarni anglaydi. Bu metod kommunikativ kompetensiya bilan birga estetik did va madaniy sezgirlikni ham shakllantiradi. Shuningdek, bunday matnlar talabalarga oddiy “axborot olish” emas, balki chuqur tahlil qilish, taqqoslash, baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Badiiy asarning yana bir muhim xususiyati - uning mustaqilligi va ko'p qirraliligidir. Fransuz faylasufi P. Masherey ta'kidlaganidek, badiiy matnning o'ziga xosligi, eng avvalo, uning ma'naviy va badiiy mustaqilligida namoyon bo'ladi. Shu sababli u ilmiy yoki amaliy maqsadlarga yo'naltirilgan boshqa matnlardan tubdan farq qiladi. Masalan, ilmiy matnlar aniq bir amaliy yoki nazariy maqsadga xizmat qilsa, badiiy matn esa ko'p ma'nolilik va turlicha talqin qilish imkoniyati bilan ajralib turadi. Ya'ni, u birgina belgilar tizimidan (belgilangan matn shaklidan) kelib chiqib bir nechta mustaqil talqinlarni qabul qiladi. Har bir talaba yoki tinglovchi o'z bilim darajasi, tajribasi va madaniy dunyoqarashiga ko'ra mazmunni turlicha anglash imkoniyatiga ega bo'ladi.[8]

Tilshunoslik fanlarining rivojlanishi badiiy matnga nisbatan yondashuvlarda ham yangi konsepsiyalar va yangi qarashlar shakllanishiga katta turtki berdi. Avvalroq ta'kidlangan badiiy matn ta'rifi asosan matnning tashqi shakli, ya'ni badiiy-uslubiy va estetik qiymatini ko'rsatishga qaratilgan edi. Biroq vaqt o'tishi bilan bu yondashuv yetarli emasligi aniqlandi, chunki badiiy matnni faqat badiiy shakl orqali tushuntirish - uning til va muloqot tizimidagi asl o'rnini cheklab qo'yadi. Zamonaviy tilshunoslik va kommunikativ metodika esa badiiy matnni ijtimoiy-madaniy hamda nutqiy hodisa sifatida ko'radi.

Shu bois, badiiy matn endilikda til orqali yuzaga keladigan maxsus kommunikativ hodisa, ya'ni madaniyatlararo muloqot, mazmun yaratish, insoniy tajribani aks ettirish vositasi sifatida talqin etiladi.

Chet tili sifatida fransuz tilini o'qitishda badiiy matnning bu jihati uni grammatika va leksikadan tashqarida, ya'ni madaniyat va muloqot ko'nikmalarini shakllantiruvchi vosita sifatida qo'llash imkonini beradi. Talaba badiiy matn orqali tilning real qo'llanish kontekstini, madaniy tizimlarni, nutqiy nozikliklarni tushunishni o'rganadi. Natijada, badiiy matn kommunikativ yondashuvning markazida turgan madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi.

Badiiy asar fransuz tilini o'qitish jarayonida eng samarali kommunikativ vosita hamda kuchli pedagogik manba sifatida e'tirof etiladi. U talabaga nafaqat til birliklarini o'zlashtirish, balki mazmuni chuqur tushunish, madaniyatlararo ko'nikmalarni takomillashtirish va nutqiy kompetensiyani rivojlantirish imkonini beradi. J.Peytard (1986, Rufat, 1997: 583 orqali) ta'kidlaganidek, badiiy matn tilning noan'anaviy ishlatilishi - ya'ni chiziqli va yagona ma'noli bo'lmagan shakllarda ifodalanishi bilan ajralib turadi. Biroq bu holat matnni tahlil qilishga to'sqinlik qilmaydi, aksincha, tilning ko'p qirrali imkoniyatlarini ochib beradi.[9]

Shu bois, badiiy asar chet tilni o'qitishda o'ziga xos o'rin egallaydi - u talabani matn bilan faol muloqotga kirishishga, talqin qilishga, o'z fikrini mustaqil takomillashtirishga undaydi. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi.

J. Peytard tilshunoslik va didaktika sohasidagi mutaxassislariga shuni ta'kidlab o'tadi: badiiy matnni til o'qitish jarayonida oxirgi bosqichga yoki tasodifiy nuqtaga qo'yish kerak emas. Aksincha, uni kursning boshidayoq, til o'qitishning asosiy tayanch nuqtasi sifatida ko'rib chiqish zarur. Uning fikricha, badiiy matn "kuzatish va tahlil qilish hujjati" sifatida darsning ilk bosqichlaridan boshlab o'quv jarayoniga kiritilishi lozim.[10]

**Xulosa.** Badiiy matnni darsning boshida berish talabani tilning tabiiy muhitiga erta jalb qilishga yordam beradi. Matn grammatika va leksika qoidalarini sun'iy tarzda emas, kontekstda tushunish imkonini yaratadi. Talaba darsning boshidanoq tahliliy va muloqotga asoslangan o'rganish jarayoniga kiradi. Bu yondashuv kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyani takomillashtirishda samarali hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, badiiy matn konnotativ qadriyatlarini yetkazishning eng samarali vositasi ekani ayon bo'ladi. Biroq, shunga qaramay, u ko'pincha fransuz tilini o'qitilishida yetarlicha o'rin egallamaydi. Buning bir qator sabablari mavjud bo'lsa-da, eng asosiylari siyosiy va ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqdir.

Ammo fransuz tilini o'qitish va til didaktikasi sohasida faoliyat yuritayotgan olim E.Riquoisning ta'kidlashicha, adabiyot uzoq vaqt davomida pedagogik jarayondan chetda qolgan, chunki kommunikativ yondashuv badiiy matnlardan foydalanish bilan mos kelmaydigandek tuyulgan. Uning fikricha, bu yondashuvda til o'qitishning markazida real kommunikativ vaziyatlar bo'lgani sababli, badiiy matnlar amaliy aloqa vositasi sifatida ko'rilmagan. Biroq oradan bir necha yil o'tgach, ayniqsa Marie-Claude Albert va Marc Souchonning "Les textes littéraires en classe de langue" (Til sinfida badiiy matnlar) asari nashr etilgach, badiiy matnlar asta-sekin kommunikativ hujjat, ya'ni til o'rganishga yordam beruvchi samarali vosita sifatida qarala boshladi.[11]

Bu yondashuv badiiy matnni faqat estetik qadriyat sifatida emas, balki lingvistik va madaniy kommunikatsiya vositasi sifatida ko'rishga yo'l ochgan.

Badiiy matnlar endilikda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, madaniyatlararo kompetensiyani takomillashtirish, hamda ijodiy tafakkurni rag'batlantirishning samarali vositasi sifatida qo'llanilmoqda. Bu esa zamonaviy fransuz tili o'qitish metodikasida badiiy matnning o'rnini yanada kuchaytirdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dictionnaire de didactique du français langue étrangère et seconde, ASDIFLE sous la direction de Jean-Pierre Cuq, éditeur CLE International, Paris, 2003
2. Honoré de Balzac. "Le Père Goriot" 1834–1835
3. Albert Camus. "L'Étranger" – Begona (1942)
4. Molière - Le Bourgeois gentilhomme (1670)
5. Ouhibi-Ghassoul, N, (2003), Le savoir -savant. Introduction du texte littéraire en cours de langue étrangère. In, Interculturalité et Didactique, n°07, pp(109-115).
6. PEYTARD, J, (1986), Didactique, sémiotique, linguistique, Syntagmes 3, Paris. 1988: 16.
7. Jakobson, 1960, C. Achour va S. Rezzoug tomonidan keltirilgan, 1990: 87.
8. Ouhibi-GHassoul, N, (2003), Le savoir -savant. Introduction du texte littéraire en cours de langue étrangère. In, Interculturalité et Didactique, n°07, pp(109-115).
9. Rufat Perello, H, (1997), De la littérature avant toute chose...Enseignement/apprentissage du F.L.E par la littérature, In, VI colloque : Centenaire de François Rabelais
10. PEYTARD, J, (1986), Didactique, sémiotique, linguistique, Syntagmes 3, Paris
11. CUQ, J.P, (2003), Dictionnaire de didactique de français langue étrangère et seconde, Paris, Clé International.